

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

22 128,9

YAHM o'sish
sur'ati

103,1 %

YAHM deflyator
indeksi

102,2 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabrda

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 22 128,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 3,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 102,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 2,9 % ga yetdi.



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2022-yil	2023-yil	
I. YAHM, jami	21 015,2	22 128,9	103,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 038,5	20 910,3	103,2
mahsulotlarga sof soliqlar	1 976,7	1 218,6	102,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 038,5	20 910,3	103,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 652,8	5 248,4	104,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 676,9	6 642,8	102,6
sanoat	5 038,0	4 766,5	100,8
qurilish	1 638,9	1 876,3	108,1
xizmatlar	7 708,8	9 019,1	103,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 003,8	1 225,5	109,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 306,8	1 500,0	107,0
boshqa xizmat tarmoqlari	5 398,2	6 293,6	100,8

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 146,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 % ga yuqoridir.

**2023-yilning yanvar-sentabr oylarida
aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilning mos davriga
nisbatan % hisobida)*



**2023-yilning yanvar-sentabr
oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi**
(ming so'mda)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022-yil	2023-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	90,6	94,5
mahsulotlarga sof soliqlar	9,4	5,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24,4	25,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	35,1	31,8
sanoat	26,5	22,8
qurilish	8,6	9,0
xizmatlar	40,5	43,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,3	5,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,9	7,2
boshqa xizmat tarmoqlari	28,3	30,0

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022-yil



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

24,4%

Sanoat

26,5%

Qurilish

8,6%

Xizmatlar

40,5%

2023-yil



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

25,1%

Sanoat

22,8%

Qurilish

9,0%

Xizmatlar

43,1%

● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 94,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 25,1 % ni, sanoat tarmog'i 22,8 % ni, qurilish 9,0 % ni va xizmatlar sohasi 43,1 % ni tashkil qildi.



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM
o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga
nisbatan % da)

YAHM



3,1

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi**



1,0

Sanoat



0,2

Qurilish



0,6

Xizmatlar



1,1

**Mahsulotlarga
sof soliqlar**



0,2




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,4 f.p.) qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda ijobiy – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,1 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 2,3 f.p.), ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM -0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda -0,2 f.p.) ga ko'paydi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



■ 2022-yil
■ 2023-yil

2023-yilning yanvar-sentabrida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 25,1 %), sanoatda – 100,8 % (22,8 %), qurilishda – 108,1 % (9,0 %), xizmatlar sohasida – 103,0 % (43,1 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,3 % (5,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 107,0 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 100,8 % (30,0 %)dan iborat bo'ldi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM

114,1

2022-yil

102,2

2023-yil



Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi

109,3

2022-yil

108,2

2023-yil



Sanoat

110,0

2022-yil

93,9

2023-yil



Qurilish

110,8

2022-yil

105,9

2023-yil



Xizmatlar

116,2

2022-yil

113,6

2023-yil

2023-yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2022-yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 102,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 113,6 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 108,2 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

	Hajmi, mlrd.so'm	Ulushi, % da
2022-yil	10 228,0	53,7
2023-yil	11 898,8	56,9

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 11 898,8 mlrd. so'm (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida – 10 228,0 mlrd.so'm)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 56,9 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida – 53,7 %) ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

